

TOMADURGADIK QISHLOG'I TARIXI HAQIDA MULOHAZALAR

Ilmiy rahbar: **I.M.Xaydarov**

TDSHU, "Markaziy Osiyo xalqlari tarixi" kafedrası professori.

Raximboyeva.N - TDSHU,
Filologiya va tillarni o'qitish:
koreys tili 1-kurs talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyati Xonqa tumani Tomadurgadik qishlog'ida va shu qishloqda joylashgan Toma mahallasi tarixi haqida so'z yuritiladi. Mazkur maqolada qishloq tarixidan tashqari uning urf-odatları, ob-havosi, udumlari, qishloq ahlining turmush tarzi bilan ham tanishasiz. Ushbu maqola Tomadurgadik qishlog'i haqidagi ma'lumotlar bilan qiziquvchi har qanday insonlarga manfaatli bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: mahalla, tarix, Xonqa, Tomadurgadik, Toma, qishloq, Shovot, cho'l.

Bugungi kunda mamlakatimiz qiyofasi, ayniqsa, qishloq va mahallalarning ko'rinishi jadal sur'atlarda o'zgarib bormoqda. Yurtimizda minglab qishloq va mahallalar bor. Ularning ba'zilar yangi barpo etilgan, ba'zilar esa qadim zamonlardan beri insonlar bilan birga yashab kelmoqda. Bunday hududlar uzoq yillik tarixga ega ekan, ularning nomlanishida ham ulkan bir tarix bor. Ayrimlarining nomlari hozirgi adabiy tilimizda uchramaydigan yoki juda eskirgan so'zlarda ifodalanadi.

Xorazm viloyatining Xonqa tumanida joylashgan Tomadurgadik qishlog'i ham ana shunday qishloqlar sirasiga kiradi. Xonqa tumani o'zining guruchlari bilan viloyatda nom chiqargan. Tumanning markaziy hududlarini Tomadurgadik qishlog'i egallab turadi. Qishloqda havo toza, suvlar musaffo. Iqlimi mo'tadil bo'lsa ham qish ancha sovuq, yoz esa juda issiq keladi.

Tomadurgadik so'zi qanday ma'noni anglatadi? Bu so'zning uzunligiga qarang: Tomadurgadik. "Toma" so'zi "tommoq" fe'lining o'zgargan shaklimi yoki boshqa ma'noni bildiradimi? Bu bizga sir. Lekin rivoyatlarga ko'ra, bu so'z zahirida nafaqat qishloq tarixi, balki uning bugungi kundagi qiyofasi ham aks etar ekan.

"Tomadurgadik" so'zini uch qismga ajratish mumkin: Toma-dur-gadik. Qadim zamonlarda hozirgi kundagi aholi istiqomat qilayotgan hududda yashab o'tgan eski urug'-qabilalardan birining nomi "Toma" bo'lgan ekan. Bu haqida Z. Do'simov o'zining "Xorazm toponimlari" asarida yozib qoldirgan. "Dur" so'zi esa o'zbek adabiy tilidagi "turmoq" fe'lining o'zgargan shakli. Ma'lumki, Xorazm shevasida "t" tovushi "d" tovushiga, "k" tovushi esa "g" tovushiga yaqinroq talaffuz etiladi. Xuddi shunday

“turmoq” fe’li “durmoq” soʻziga yaqin aytiladi. “Gadik” esa Xorazm shevasida “ikki kanal orasi, ular kesishgan joy” ma’noni anglatar ekan. Haqiqatan ham, Tomadurgadik qishlogʻi Polvon va Shohobod (Shovot) kanallari orasida joylashgan. Demak, “Tomadurgadik” soʻzi “ikki kanal kesishgan joyda yashagan qabilalar yeri” degan ma’noni bermoqda.

Tomadurgadik qishlogʻi tarixi haqida boshqa rivoyatlar ham mavjud. Bunda “Toma” soʻzi “toma” urugʻi yashab oʻtgan joyga nisbatan ishlatiladi. Biroq “dur” soʻziga boshqacha ma’no beriladi. Bu soʻzga “turmoq” ma’nosida emas, oʻz ma’nosida, ya’ni “qimmatbaho mahsulot” deya qaraladi. “Gadik” esa oʻsha - “ikki kanal orasi” ma’nosini saqlab qoladi. “Tomadurgadik” soʻzining ma’nosi esa “ikki kanal orasidagi qimmatbaho joy” deya izohlanadi. Yaxshilab oʻylab qaralsa, bu rivoyatda ham jon bor. Chunki qishloq tuproqlari unumdor va juda hosildor. Dehqonlar har yilda 2-3 martagacha hosil olishlari ham mumkin.

Bugungi kunda Tomadurgadik qishlogʻida 16000 dan ortiq aholi istiqomat qiladi. Tomadurgadik qishlogʻining koʻrinishi kundan kunga zamonaviylik kasb etmoqda. Qishloqda odamlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan boʻlib, hozirda 3 ta maktab va 2 ta kollej faoliyat yuritmoqda. Obodonlashtirish ishlari doimiy oʻtkazilishi sababli koʻchlar ozoda. Yoʻllar asfaltlangan, zamonaviy uy-joylar qurilishi davom etmoqda, rahbarlar tomonidan tadbirkorlikka alohida eʼtibor berilmoqda.

Toma mahallasining nomlanish tarixi ham juda qiziqarli. Bu soʻz qishloq nomi (Tomadurgadik)ning asosidan olingan. Ayrim manbalarda, “Toma” soʻzi, haqiqatan ham, urugʻ nomi ekanligi yozib qoldirilgan. Biroq mahalla tarixi haqida juda qiziqarli rivoyat uzoq yillardan buyon ogʻizdan ogʻizga oʻtib kelmoqda.

Shu yerda yashovchi keksalarning aytishicha, ular yashayotgan hudud qadimda faqat choʻl va qamishzorlardan iborat boʻlgan. Vaqt oʻtishi bilan odamlar bu joyga koʻchib kela boshlagan. Ular yerlarni oʻzlashtirganlar, natijada dehqonchilik va bogʻdorchilik qilish uchun sharoit paydo boʻlgan. Shundan keyin boshqa joylardan ham odamlar kelib, muqim oʻrnashishi oqibatida kichik bir odamlar maskani hosil boʻlgan. Avvaldan yashab kelayotganlarning hazil tariqasida aytgan “Toma toma koʻl boʻlur ekan-da” degan gapidan ilhomlanib, mahallaga “Toma” deb nom berilgan.

Mahalla nomi – “Toma” – biroz eskiroq, hozirda isteʼmolda kam foydalaniladigan soʻz boʻlganligi uchunmi, turli lugʻatlarda bu soʻzni uchratishimiz qiyin. Mahalla juda qadimiy ekanligini shu hududda joylashgan Gʻoyib ota., Shayx Mansur bobo, Shayx Sulaymon bobo kabi muqaddas joylarga odamlar turli hududlardan ziyorat uchun tashrif buyurishidan bilib olishimiz mumkin.

Toma mahallasi unchalik katta bolmagan hududni egallaydi. Hozirgi kunga kelib, mahallada 6000 ga yaqin odam ahil-inoq yashamoqda. Shuning 3000 dan ortigʻini yoshlar tashkil etadi.

Mahalla ahli, asosan, dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik bilan shug'ullanadi. Hunarmandchilik, tikuvchilik, nonvoychilik va boshqa turli sohalar ham rivojlangan. Dehqonchilik asosiy mashg'ulot bo'lganligi uchun iqlimga mos bo'lgan sabzavot va mevalarni har bir xonadondan topish mumkin.

Mahalla hududi tekisliklardan iborat bo'lganligi sababli havo yozda issiq ($+40^{\circ}\text{C}$ dan yuqori) va quruq, qishda esa sovuq (-10°C gacha) bo'ladi. Yomg'ir, asosan, mart-aprel oylarida yog'adi.

Mahallada katta yoshli kishilar va yoshlar tomonidan uning obodligi, farovonligi yo'lida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Turli tadbirlar, jumladan, Mustaqillik bayrami, Navro'z ayyomi katta tantana bilan nishonlanadi. Bu kabi tadbirlar mahalladoshlarni bir-biriga yana-da yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Tomadurgadik qishlog'i va Toma mahallasi o'ziga xos qiziqarli tarixga ega bo'lib, bugungi kunda ham o'zining tarixiy ahamiyatini yo'qotmagan. Tomadurgadik qishlog'i va Toma mahallasi qadimiy an'analari bilan birdamlik va mehr oqibat ramzi sifatida tanilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xorazm toponimlar. Z.Do'simov. Toshkent. 1985.
2. Xonqa tarixi. Komiljon Nurjonov. Urganch. 2025.